OLIY TA’LIM TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Eshonqulova Kamola Ibroximovna
Guliston davlat pedagogika instituti stajyor-o‘qituvchi
e-mail: eshonqulovakamola1@gmail.com
Safarova Nafisa Ulug‘bek qizi
Guliston davlat pedagogika instituti 2-kurs talabasi
e-mail: nafisasafarova22@gmail.com

Annotasiya. Ushbu maqolada Oliy ta’lim tizimini raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etishdagi asosiy muammolar va shuningdek, kundalik hayotimizda ham innovatsion texnologiyalarning qay darajada ahamiyatli ekanligi haqida bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: Oliy ta’lim, innovatsion, texnologiya, raqamlashtirish, quiz test, talaba, kompetensiya.

Annotation. This article describes the main problems in digitizing the higher education system and organizing it based on innovative technologies, as well as the importance of innovative technologies in our everyday life.

Keyword: Higher education, innovation, technology, digitization, quiz test, student, competence.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil 25-yanvardagi Oliy Majlis Murojaatnomsida 2020-yil uchun muhim vazifalar haqida asosan innovatsion texnologiyalarni takomillashtirish bo‘yicha quyidagilarni keltirib o‘tdi:

“Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma’naviyat va ma’daniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko‘tarish maqsadida men yurtimizda 2020-yilga “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili “ deb nom berishni taklif berdim“ -deydilar. Yana O‘zbekistonda ta’lim tizimini yanada ravnaq toptirish uchun bir qancha konsepsiyalar, nizomlar, qonunlar ishlab chiqilmoqda. Bulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Ta’limni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida quyidagilar belgilangan:

- Oliy ta’limda o‘qib tahsil olgan har bir talaba mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali va mustahkam bilimli kadrlar tayyorlash;

- Fuqarolar orasida ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, shu qatorda imkoniyati cheklangan aholilarning ta’lim olishlari uchun zarur bo‘lgan infratuzilmalar, texnologiyalar bilan ta’minlashga oid sharoitlarni yaxshilash va shu kabi bir qancha tushunchalar keltirilgan.

Bugungi kunda raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalardan foydalanish zamon talabi darajasiga ko‘tarilgan. Qayerga qaramang, yon-atrof bizni o‘rab turgan jamiyat texnikalardan iborat. Oliy ta’limni raqamlashtirish nima uchun kerak? Hozir buning asosiy sabablaridan bir qanchasini ko‘rib chiqamiz:

- talaba yoshlarga bilimlarni zamonaviy ko‘rinishda berish uchun ya’ni ularni raqamalashayotgan kelajakka tayyorlash uchun;

- bo‘lajak pedagoglarni hozirgi zamon yoshlarining talablarini to‘laqonli bajara olishi uchun. O‘quvchilarga kerakli va zarur bo‘lgan bilimlarni yangicha ko‘rinishda qiziqarliroq ravishda o‘rgata olishlari uchun;

- talabalarning texnologiyalar bilan ishlashga bo‘lgan kompetensiyalarini rivojlantirish uchun.

Hozirgi paytda biz raqamlashgan va rivojlangan jamiyatda yashayapmiz. Har bir ishni bitkazish uchun texnika-dan foydalanilmoqda. Masalan:

- bilimlarni mustahkamlash maqsadida quiz testlar, turli xildagi onlayn o‘yinlar ham bor, bulardan foydalanish uchun;

- yangi, qo‘shimcha bilimlarni olish uchun onlayn dars va videoroliklarni ko‘rish uchun;

- pedagoglar turli xil metod va ko‘rgazmali qurollarni o‘quvchilarga taqdim etishlari uchun.

Bu kabi millionlab sabablarni topishimiz mumkin. Bu faqatgina ta’limga oid sabablar kundalik hayotimizda ham bunday sabablardan misollarni anchaginasini aytsak bo‘ladi.

1. Oddiygina onlayn taksi “yandex” xizmatidan foydalanish uchun;
2. Taom, yegulik, turli xil liboslarni ham onlayn xarid qilish uchun ;
3. Qayergadir ariza yuborish uchun davlat idoralarida navbat kutib o‘tirish shart emas gajetlardan foydalanib bu ishni bitirsa bo‘ladi;
4. Kredit olish uchun ham onlayn ariza tashlashni o‘zi kifoya.

O‘zbekiston Respublikasining barcha hududlarida joylashgan Oliy ta’lim muassasalari “HEMIS” tizimiga ulangan . Talabalar bu tizim orqali ball to‘plab borishadi, vazifalar olib, vazifalar ushbu tizimga talabalar tomonidan joylanib boriladi. Davomat, yakuniy nazoratga, oraliq va joriy nazoratlar ham ushbu tizim orqali nazorat qilib boriladi. Bu tizimda barcha talabalarning shaxsiy kabineti bo‘ladi. Bu kabinetga kirish uchun login va parollar taqdim etiladi.

Oliy ta’limni raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etishning ham bir qancha muammolari bor bular:

- Dars davomida foydalanish uchun xonalardagi televizorlarning yetishmasligi;
- Wi-fi tarmog‘ining barcha xonalarga yetib bormasligi;
- Kerakli jihozlar bilan to‘ldirilmaganligi kabi asosiy muammolar bor.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mukinki, barcha Oliy ta’lim muassasalari, o‘rta maxsus, kasb-hunar talimlari barcha ta’lim dargohlari talabga javob beradigan darajada innovatsion texnologiyalar bilan jihozlanishi va barcha bu texnologiyalardan qanday foydalanishni bilishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. PF-5847-son 08.10.2019 “O‘zbekiston Respublikasining Oliy Ta’lim Tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gifarmon.

2. PQ-2909-son 20.04.2017 “Oliy Ta’lim tizimini yanada yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi qonun.